

О`ЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИНИНГ: “СЕHIRЛИ-FANTASTIK ЭРТАКЛАР” ТУРИ ТАHLИЛИ

Shavkatova Kumushoy Hamdam qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O`zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada o`zbek xalq ertaklarining bir turi bo`lgan, Sehrli-fantastik ertaklar “janrining o`quvchi ongiga ta`siri va tahlili haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Ertak, sehrli-fantastik, etuk matal, ushuk, varsoqi, cho`pchak.

Ertak xalq og`zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, kattayu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo`lgan janridir. Ular juda o`tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlarini asosida paydo bo`lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oliyjanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o`ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O`tmishda ertaklar yilning ma`lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo`lgan yoshi ulug`, dona, hurmatli va e`tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi.[1]

Ertak-xalq og`zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to`qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg`ariyning „Devonu lug`otit turk“ asosida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og`zaki tarzda hikoya qilish ma`nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg`ona o`zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsoqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho`pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyibg`aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g`ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo`lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig`idagi dinamik harakatlarning konflikt yechimini ta`minlaydi.[2]

Ertaklarning asosiy negizida yosh avlodni tarbiyalash, ularga yaxshilik va yomonlik, ezgulik, mehnatkashlik, halollik va yana shu kabi xislatlarni singdirish hisoblanadi. Ertaklardan biz asosan yoshi kichik bolalarga ularni uxlatish, ta`lim berish, qiziqtirish, tafakkurini boyitish uchun foydalanamiz. Ertak ko`p tinglangan, o`qigan bolaning tafakkuri, dunyoqarashi keng bo`ladi. Ertak tinglangan va ertak tinglamagan bola o`rtasida farq bor. Nazarimizda ertak tinglamagan bola bo`lmasa

kerak. Hech bo'lmaganda kamida bitta ertak tinglagan bo'lishi kerak. Ertaklar bola tafakkurini boyitadi. Qanday boyitadi? Ertak tinglasak albatta o'sha ertakka nisbatan o'z qarashimiz mavjud. Ayniqsa, jajji bolalar ertak tinglaganda: u nima uchun bunday qiladi? nima uchun bunday? Nima uchun unday? Ismi nimaga bunaqa? Va yana shunga o'xshash turli xil savollar berishadi. Biz o'z vaqtida bu savollarga albatta to'laqonli javob berishimiz kerak bo'ladi. Ana shundagina bolalarda ertak tinglab tushunish, uning mag'zini chaqish, unga nisbatan o'z fikrini bildirib xulosalash qobiliyati shakillanadi. Savollariga to'liq javob bersak ertak mazmunini to'liq anglab yeta olmaydi. Xalqimiz orasida „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“ kabi xalq maqoli mavjud. Bu maqol keng ma'noga ega bo'lib, biz ertak tinglab o'sha ertak qaxramoniga, voqealar rivojiga o'z fikrimizni bildirib xulosa chiqaramiz. O'zimiz uchun kerak joylarini olib, keraksiz joylarini mulohaza qilamiz.

Sehrli ertaklar. O'zbek xalq ertaklarining salmoqli qismi sehrli ertaklardan iborat. Mashhur va taniqli folklorshunos olimning ta'kidlashicha, turli xalqlar ijodida uchraydigan ertaklar orasida eng bir-biriga o'xshash mazmunga ega ekani sehli ertaklardir. Bunday ertaklarni, ko'pincha, asar qahramoniga nimaningdir yetishmasligi, qahramonning bu narsaga ega bo'lishi, qandaydir ishni taqiqlash, kuchli raqibning mavjudligi, xavfli safarga chiqish kabi lavhalar birlashtirib turadi. Eng muhimi sehrli ertaklarda turli mo'jizalar, afsungarliklar, fantastic tasvirlar yetakchilik qiladi. Chunonchi Hamid Olimjonning „Oygul bilan Bahtiyor“ dostoning boshlanishida aytgan: „o'zi uchar gilamlar“, „o't bog'langan qanotlar“, „beqanot uchgan otlar“, „qizil bo'lib ochilgan gul“, „so'ylaguvchi devorlar“, „bola bo'p qolgan chollar“ kabi misralar aynan sehrli ertaklar ta'rifiga to'g'ri keladi.

Sehrli ertaklar mavzuning xilma-xilligi bilan ham e'tiborni o'ziga jalb qiladi. Ularda turli sarguzashtlar, mo'jizaviy hayot tasviri, adolatning g'alaba qozonishi, insoniy fazilat madhi keng o'rin olgan. Bunday asarlarda, ayniqsa, tasvir san'atlaridan mubolag'adan qayta-qayta foydalaniladi. Eng muhimi tinglovchi yoki kitobxon mubolag'alarining birontasiga shubha bilan qaramaydi. Masalan, „Mohistara“ ertagida yugirayotgan kiyik oyog'i ostidan dur-u gavharlar sochiladi., „Ota vasiyati“ ertagida tutatqi tutatilgani zahoti kenja o'g'il qarshisida anjomlangan ot paydo bo'ladi. Ammo bunday mo'jizalarning sodir bo'lishi hech kimda shubha uyg'otmaydi.[1]

Jajji bolalarning dunyo qarashi ham fkirlashi ham o'zgacha bo'ladi. Ayniqsa ularga ko'z ko'rib quloq eshitmagan hodisalar haqidagi ertaklar, cho'pchaklar, rivoyatlar juda yoqadi. Ular ham shu sehrli olamda yashagisi, baxtli hayot kechirgisi, kuch- qudratga ega bo'lgisi va yana shu kabi turli fantastik hodisalarni, sarguzashtlarni boshidan kechirgisi keladi. Bunday ertaklarni tinglash nafaqat yosh bolalarga balki katta yoshdagi insonlarga ham xush yoqadi. Ular ham shu sehrli hodisalarga ishonib qoladi va bir muddat o'z bolalik hotiralariga, xayollariga berilishadi. Jaxon ertaknavisligida ham bunga yorqin misollarni keltirishimiz mumkin. Bunday eraklarni

: Hans Kristian Andersen, Aka- uka Grimlar, Janni Rodari kabi eraknavislarning ertaklarida ko`rishimiz mumkin. Bunday ajoyib sehrli ertaklar insonni qayta va qayta orzu qilishga undaydi. Bunday ertaklar bizga nimani beradi? deb o`ylashimiz mumkin. Bu kabi ertaklar bizga hayot faqat g`am- anduxtan iborat emas, unda shu kabi mo`jizalar ham bor deya ishora beradi. Agar inson mo`jizaga ishonsa va shuni kutib, harakat qilib yashasa albatta o`sham o`jiza hayotida sodir bo`ladi. Shuning uchun ham biz yosh bolalarga shu va shunga o`xshash qiziqarli voqealarni, ertaklarni, rivoyatlarni ko`piroq aytib berishimiz lozim. Yosh bola bulardan o`ziga to`g`ri xulosa chiqaradi. Biz yana bu yo`l orqali bola ko`nglida adabiyotga, she`riyatga muhabbat uyg`ota olamiz. Agar yaxshilab o`tmishga nazar tashlaydigan bo`lsak bizning ko`pchilik shoir va yozuvchilarimizning onalari, buvilari ularga shunday ertak va rivoyatlarni aytib berib ularning ko`nglida adabiyotga bo`lgan muhabbatni uyg`otib ketgan. Ertak ko`p tinglagan boladan hech qachon yomon inson chiqmaydi.

Sehrli-fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatnig ezgu va shirin xayollari, turli yovuz kuchlarga qarshi olib borgan kurashlari davomida xulosalar, ulardan kelib chiqadigan extiyojlarning o`ziga xos yechimi sifatida maydonga kelgan . [3].

Biz xalq og`zaki ijodi namunalaridan to`laligicha habardor bo`lishimiz va farzandlarimizni ham tanishtirib borishimiz lozim. Har bir inson farzandi oqil-dono bo`lib yetishishini istaydi va buy o`lda tinmay harakat qiladi, mehnat qiladi. Holbuki buni oddiy erak aytib berish orqali ham amalga oshisa bo`ladi. Shunday ertak orqali bolaga tarbiya berish eng to`g`ri va samarali yo`l sanaladi. Mayli farzandingiz sehr-joduga, devlarga, parilarga ishonsin va ularga o`xshashga harakat qilsin, bundan hech kimga ziyon yetmaydi. Aksincha bola tarbiyalanadi, oq- qorani taniydigan, har bir narsadan o`ziga kerakli xulosa chiqaradigan bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O`zbek Folklori” Toshkent „Zebo print” 2022 (175-182 betlar)
2. uz.m.wikipedia.org
3. arxiv.uz